

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI
“Geografiya o`qitish metodikasi” ta’lim yo’nalishi
4-kurs “B”guruh talabasi Iskanova Gulnisoning
Jahon mamlakatlari
iqtisodiy-ijtmoyiy geografiyasi fanidan

Kurs ishi

Mavzu: Yaponiyaga iqtisodiy geografik tavsif

Bajardi: Iskanova Gulniso

Tekshirdi: o`qit. S.Q.Negmatov

Navoiy 2015

Mundarija

KIRISH:

I.Bob. Yaponiyaning iqtisodiy-geografik o'рни va tabiiy-demografik salohiyati.

1.1. Yaponiyaning hududiy chegaralari va tabiiy geografik o'рни.

1.2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

1.3. Aholisi va mehnat resurslari

II.Bob. Yaponiya xo`jaligiga umumiy tavsif.

2.1. Yaponiya xo`jaligi: sanoati, qishloq xo`jaligi.

2.2. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

KIRISH

Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanining asosiy maqsadi talabalarda. O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»i va «Ta'lim to'g'risidagi qonun»i qabul qilinishi munosabati bilan o'quv qo'llanmalari va darsliklarga bo'lgan talablar keskin o'zgardi. Barcha fanlarga bo'lganidik maktab geografiyasi fanida ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya predmetlarining dasturi va tuzilishi O'zbekiston maktab ta'limi tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda qaytadan ko'rib chiqildi.

Shu munosabat bilan geografiya o'qitish metodikasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash munosabati bilan o'qitish metodikasida ham qator o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Shu munosabat bilan mazkur fandan har bir talabaga "Kurs ishlari" mavzulari berilgan va u orqali fan uchun mo'ljallangan semestr davomida eng qiziqarli ma'lumotlar yoritilishi ko'zda tutilgan.

"Yaponiyaga iqtisodiy geografik tavsif" nomli kurs ishi mavzusi orqali Yaponiyaning bugungi kunda jahonning yirik bozorlari va jahonning eng yirik iqtisodiy bloklariga nisbatan tutgan o'rniga baho berish kurs ishining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Bu maqsadga erishish uchun esa bugungi kunda Yaponiyaning iqtisodiy geografik o'ni, tabiiy geografik o'ni, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari, Yaponiyaning umumiy xo'jaligi: sanoati va qishloq xo'jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari kabi rejalar tanlab olindi. Shu rejalar asosida Yaponiyaga iqtisodiy geografik tavsif berish nazarda tutilmoqda.

I.BOB. YAPONIYANING IQTISODIY-GEOGRAFIK O'RNI VA TABIIY-DEMOGRAFIK SALOHİYATI.

1.1. Yaponiyaning hududiy chegaralari va tabiiy geografik o'rni.

Yaponlar o'z mamlakatini qadimdan Nippon yoki Nixon deb atashadi. Bu so'zlarning ma'nosi "quyosh" yoki "asos" demakdir. Yaponiyani ko'pchilik "Quyosh chiqadigan mamlakat" deb atashadi. Ramziy belgi sifatida davlat bayrog'iga quyosh tasviri tushirilgan. Yuqoridagi holatlarning barchasi Yaponiyaning tabiiy geografik o'rniga mos tushadi. 180⁰ dan 5-soat farqi mavjud. Yaponiya-Osiyoning sharqida asosan materik orollarida joylashgan davlat bo'lib, u 4 ta yirik orol (Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu, Sikoku) va to'rt mingta mayda orollardan tashkil topgan. Yaponiya orollari 3,5 ming km ga cho'zilgan bo'lib, 20⁰25¹ va 45⁰33¹ shimoliy kenglik, 122⁰56¹ va 153⁰59¹ sharqiy uzunlikda joylashgan. Yapon orollarini shimoldan Oxota dengizi, janubdan Fillipin dengizi, janubi-g'arbdan Sharqiy Xitoy dengizi, g'arbdan Yapon dengizi va Koreya bo'g'ozi, sharqdan Tinch okeani o'rab turadi.

Yaponiya Yevrosiyo va Tinch okeani litosfera plitalarida to'qnashgan joyda joylashganligi uchun birinchi darajali seysmik va vulkanik mintqa hisoblanadi. Yaponiya hududida tez-tez zilzila bo'lishidan tashqari 188 ga yaqin vulqonlar joylashgan, ulardan 40 tasi harakatdagi vulqonlardir. Yaponiya sohillarida tez-tez sunami va tayfunlar bo'lib turadi, musson yomg'irlari kuzatiladi.

Mamlakat maydoni 377 944 km² bo'lib, u maydoniga ko'ra AQSHning Kaliforniya shtatiga teng yoki O'zbekiston Respublikasi maydonidan 71 ming km² ga kichik.

Yaponiyaning iqtisodiy geografik o'rni avvalo orollarda joylashganligi va materikka yaqinligi bilan belgilanadi. Bu avvalo Yaponiyani Rossiya Fedarasiyasi, XXR va "Osiyo yo'lbari" davlatlariga yaqinligi bilan izohlanadi. Ayni paytda Yaponiya Osiyo-Tinch okeani regionining markazidir. Bu holatlar mamlakatni xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Yaponiya hukumati bilan Rossiya hukumati orasida Shikotan oroli majorasi mavjud va bu holat hamon davom etmoqda.

Yaponiyani hududining o'lchamiga ko'ra, G'arbiy Yevropaning eng yirik mamlakatlari va AQSH shtatlari bilan taqqoslasa bo'ladi. Biroq tarkibiga va shakliga ko'ra Yaponiya hududi ulardan keskin farq qiladi. Yaponiya arxipelaglar mamalakati bo'lib, to'ttta yirik va deyarli 4 ming mayda orollarda joylashgan. U butun bir, orollar olamidir.

1.2. Tabiiy sharoiti va resurslari.

Yaponiya – Sharqiy Osiyodagi davlat bo'lib, butunlay Tinch okeanining g'arbiy qismidagi orollarda joylashgandir. Mamlakat shimolda Oxota dengizi, sharqda Tinch okeani, janubda Tinch okeani va Janubiy Xitoy dengizi; g'arbda esa Korea qo'ltig'i va Yapon dengizi suvlari yuvib turadi. Yaponiyaning kattagina qismini tog'lar egallagan. So'nggan va harakatdagi vulqonlari mavjud bo'lib, ularning ichida eng balandi Fudziyama vulqoni Yaponiyaning ham eng baland nuqtasi hisoblanadi. U Xonsyu orolida, balandligi – 3 776 metrni tashkil etadi. Yer silkinishlari tez-tez sodir bo'lib turadi. Tinch okeani qirg'oqlariga tsunami kelib turadi. Yaponiya hududini 3/4 qismini tog'lar va qir-adirlar egallagan. Eng katta pastekisligi Toxio qo'ltig'i bo'yidagi Konto pastekisligidir. Tog'lar Saxalin oroli va Kuril orollaridagi tog'larning davomi bo'lib, ular shimol va shimoli-sharqdan,

janub va janubi-g'arbga cho'zilgan. Pastekisliklar asosan sohillarda joylashgan bo'lib, ular mamlakat hududini 15%ini tashkil etadi.

Yaponiyani shimol qismi (Xokkaydo oroli, Xonsyu orolini shimoli) mo''tadil, janubiy qismi (Xonsyu orolining janubi, Kyusyu, Sikoku, Ryukyu) subtropik iqlim mintaqasida joylashgan. Barcha hududi musson iqlim tipiga ega. Yillik yog'in miqdori 1000 mm dan (Xokkaydo orolining sharqida) 3800 mm gacha (markaziy Xonsyu tizmalarida). Qor butun Yaponiya hududida yog'adi, qor qoplami qalinligi mamlakat shimoli-g'arbida 4,5 m gacha etadi. Daryo tarmoqlari zich, lekin qisqa tog' daryolaridir. Eng yirik daryolari-Sinano, Tone, Kitakami, Isikari.

Tabiiy resurslarga kambag'al. Mamlakatda toshko'mir, mis rudalari, temir rudalari, marganets rudalari, oltin, kumush, oltingugurt, xrom, polimetall rudalarining kam zahiralarini konalari topilgan. Lekin ular mamlakat ehtiyojini qondirmaydi. Yoki ularni qazib olish chetdan import qilishga nisbatan qimmatga tushadi. Shuning uchun Yaponiya importining 49% ini yoqilg'ilar, 13 % ini ruda va boshqa xom-ashyolar tashkil etadi. Shu bilan birga Yaponiya boy dengiz, geotermal, gidroenergiya va agroiklim resurslariga ega.

Yaponiyaning tabiiy kartasi



Yaponiyaning sohillarga nihoyatda boydir. Yaponiyaning tabiiy geografik o`rni avvalo uning orollarda joylashganligi bilan bog`liqdir, mamlakat orollari Yevrosiyo bilan Tinch okeani orasida 3,5 ming km ga cho`zilgan bo`lib, Osiyo-Tinch okean regionining markazidadir. Bu hol mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish uchun juda imkoniyatlar ochadi.

Mamlakatning Osiyoning chekka sharqida joylashganligi uning iborali nomida aks etgan: u “Kun chiqardagi o`lka” deb ataladi.

Yaponiya o`rmon resurslariga boy mamlakatlardan hisoblanadi. Hududining 2/3 qismidan ko`prog`ini o`rmonlar egallagan. O`rmonlarini 1/3 qismini sun`iy o`rmonlar tashkil etadi. Igna bargli o`rmonlar jami o`rmonlarning 1/2 qismini egallagan. Yaponiya florasida 2750 o`simlik turi uchraydi, shundan 168 tasi daraxt o`simliklaridir. Faunasidagi endemik turlarga: yapon maxakasi, qiziltumshuq maymun, ayiq, quyon, olmaxon, yapon xoldor bug`usi, ko`rshapalak, ko`pgina qushlar kiradi. Ryukyu oroli sut emizuvchilarga kambag`al. Yaponiya hududida sut emizuvchilarning 270 turi, qushlarning 800 turi, sudralib yuruvchilarning 110 turi, dengiz sohillarida esa baliqlarning 600 turi, molyuskalarning 1000dan ortiq turi uchraydi.

Keyingi vaqtda Yaponiya rekratsion resurslarga katta e`tibor qaratmoqda. Hozirda mamlakatda milliy bog`lar soni 25 taga yetadi, 1973 yil birinchi suv osti parki tashkil qilingan.

1.2. AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI

Bugungi kunda Yaponiya aholisi soniga ko'ra dunyo mamlakatlarining o'nligiga kiradi. Biroq keyingi o'n yilliklar davomida aholi tabiiy o'sishining xarakteri keskin darajada o'zgaradi. Yaponiya aholi ko'payishining ikkinchi tipidan birinchi tipiga o'tgan Osiyodagi birinchi mamlakat bo'ladi.

Bu "demokratik inqilob" juda qisqa muddatda bo'ldi. U yapon jamiyatidagi yirik ijtimoiy-iqtisodiy tub o'zgarishlar, ta'lim va sog'liqni saqlashdagi jiddiy yutuqlar nqtijasi bo'ldi. Yaponiya – bolalar o'limi ko'rsatkichlari dunyoda eng past bo'lgan sog'lom kishilar millati mamlakatidir. Bunda davlat demografik siyosati ham katta rol o'ynadi. Oilani rejalashtirish asoslariga doir mashg'ulotlar maktabning yuqori sinflaridan o'tkaziladi. Kechroq turmushga chiqish targ'ib qilinadi.

Yaponiya milliy tarkibiga ko'ra nihoyatda bir xildir. U tipik bir millatli mamlakat bo'lib, yaponlar aholisining 99 %dan ortig'ini tashkil etadi. Yapon tili juda o'ziga xos bo'lib, jahondagitil oilalaridan birontasiga kirmaydi. Hozirgi zamon yapon yozuvi tizimi ham ancha murakkab, chunki unda ham ierogliflar ham bo'g'inli harflar ham ishlatiladi.

Mamlakatda ikki asosiy din – sintoizm va buddizm mavjud bo'lib, ular ilk feodallik davridayoq vujudga kelgan. Odatda dindorlar bir vaqtda har ikkala dinga e'tiqod qiladilar; bu dinlarning ta'sir doirasi o'zgacha bo'lsa – da, ular birgalikda mavjuddir. Yaponiya yuksak madaniyat va yoppasiga savodxonlik mamlakati bo'lib, unda bolalarni o'qitish va tarbiyalashga ularning yoshligidan katta e'tibor beriladi. Yaponiyadagi universitetlar soni butun G'arbiy Yevropadagidan ko'p. U – qadimgi madaniyat turmush tarzining ajralmas qismidir.

Bunday an'analarga quyidagilar kiradi: ikebana – guldastalar tuzish va vazaga gul hamda daraxt novdalarini muayyan tartibda joylashtirish, bonsoy – pakana daraxtlar yetishtirish, kalligrafiya, ya'ni xusnixat, musiqa, arxitekturas, soyalar teatri, choy tantanasi, kimono, ayollar kiyimi, og'ir vaqznililarning sumo kurashi, dzyudo, karate, taom yeyishdagi ishlatiladigan chilcho'p, o'ziga xos

yapon taomlari, yaponcha dasturxon yasatish va ko`plab boshqa xil an`analardir. Muqaddas an`analarga yana keksalarga xurmat-izzatda bo`lish, ota-onaning roziligiga qarab turmush qurish (so`nggi yillarda bu maqsadda kompyuterlardan foydalanilmoqda), ko`plab narsalarga ishonish (irim), turli xil taqvimlardan foydalanish, davlat miqyosidagi rasmiy bayramlarning ko`pligi (bolalar kuni, voyaga yetganlar kuni, bahorgi va kuzgi kun – tun tengligi bayramlari bunga misoldir), turli tuman festivallarni ko`rsatishimiz mumkin.

Aholisining tabiiy ko`payishi jihatidan Yaponiya “demografik tanglik” tipidagi davlat hisoblanadi. 2001 yil ma`lumotiga ko`ra mamlakatda tug`ilish koeffisienti 9‰, o`lim koeffisienti 8‰ni tashkil etadi. Agar, tug`ilish va o`lim orasidagi nisbat shu holatda ketsa, Rossiya va Fransiya demograflarining ma`lumotlariga ko`ra Yaponiya aholisining soni 2025 yil 121 mln. kishi bo`lishi prognoz qilinmoqda. 2001 yil ma`lumotiga ko`ra davlatda har bir ayolga 1,3 bola to`g`ri keladi. 15 yoshgacha bo`lganlar soni dunyo bo`yicha umumiy aholini 30 % ini, O`zbekistonda 38 % ni, Yaponiyada esa 15 % ni tashkil yetadi. 64 yoshdan yuqorilar esa dunyo bo`yicha 7 % ni, O`zbekistonda 4 % ni, Yaponiyada esa 17 % ni tashkil etadi. O`rtacha umr ko`rish dunyo bo`yicha erkaklarda 65 yoshni, ayollarda 69 yoshni (O`zbekistonda esa 68-73 yosh) tashkil etgani holda, bu ko`rsatkich Yaponiyada dunyo bo`yicha eng yuqorini, ya`ni erkaklarda 77 yoshni, ayollarda 84 yoshni, o`rtacha esa 81 yoshni tashkil etadi. Yaponiya bolalar o`limi ko`rsatkichi eng past bo`lgan sog`lom odamlar millati mamlakatidir. Dunyo bo`yicha bolalar o`limi ko`rsatkichi 1000 chaqaloqqa 56 kishini tashkil etgani holatida, bu ko`rsatkich Angolada 198 kishini, O`zbekistonda 20 kishini, Yaponiyada 3 kishini tashkil etadi. Bunda davlat demografik siyosati katta rol o`ynaydi, ya`ni oilani rejalashtirish va kechroq turmushga chiqishni targ`ib qilinishi.

Yapon xalqining etnogenezi haligacha to`liq aniqlanmagan. Yapon orollarida ilgari odam yashamagan, neolit davrida Indoneziya orollaridan ko`chib kelgan aynlar va qit`adan kelgan koreyslar aralashib murakkab etnik gruppani vujudga

keltirgan. Mamlakatda yaponlardan tashqari koreyslar, xuasyalar va aynlar yashaydi.

Yapon tili juda o'ziga xos bo'lib, jahondagi til oilalaridan birontasiga kirmaydi. Yapon yozuvi tizimi ham ancha murakkab bo'lib, unda ieroglif hamda bo'g'inli harflar ishlatiladi.

Yaponiyada ikki asosiy din mavjud bo'lib, ya'ni sintoizm (milliy din) va buddizm (jahon dini) odatda dindorlar har ikki dinga e'tiqod qiladilar.

Yaponiya-yuksak madaniyat va yoppasiga savodxon mamlakatdir. Savadxonlik darajasini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin. Yaponiyadagi universitetlar soni butun G'arbiy Evropadagidan ko'p, ilmiy hodimlar soni esa Buyuk Britaniya, Fransiya va GFR ni qo'shib hisoblaganda ham ko'p. Mamlakatda qadimgi madaniyat, badiiy va turmush an'analari yapon turmush tarzini ajralmas qismi bo'lib saqlanib qolgan. Masalan: ikebana, bonsoy, kalligrafiya, jonli manzaralar chizish, choy tantanasi, kimono ayollar kiyimi, sumo kurashi, dzyudo, yaponcha dasturxon yasatish, sakuraning gullashini tomosha qilish, zarang o'rmonida sayr, bahorgi va kuzgi tengkunlik bayramlari va x.k. Yaponiyada yiliga 40 dan ortiq turli-tuman festivallar o'tkaziladi. Ulardan eng mashhuri "oq orolda"gi qor festivalidir.

Yaponiya aholisining o'rtacha zichligi 1km²ga 333 kishini (2012y.) tashkil etadi. Aholisining asosiy qismi mamlakat hududini 10 % ida yashaydi. Aholi eng zich yashaydigan erlar Xonsyu orolining janubidagi Tinch okeani sohillari va Ichki yapon dengizi sohillariga to'g'ri keladi.

Ilgari Yaponiyada aholi soni 30 000 dan ortiq bo'lgan aholi punktlari shahar maqomini olgan bo'lsa, hozirda 50 000. Urbanizasiya darajasi 76 % ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich bo'yicha dunyoda oldingi o'rinlarda turadi.

Mamlakatda 200 dan ortiq yirik shaharlar bo'lib, ulardan 11 tasi millioner shaharlardir. Ular quyidagilar: Tokio (8 mln.), Iokogama (3,3 mln.), Osaka (2,6 mln.), Nagoya (2,1 mln.), Sapporo (1,7 mln.), Kobe (1,4 mln.), Kioto (1,4 mln.),

Fukuoka (1,3 mln.), Kawasaki (1,2 mln.), Xirosima (1,1 mln.), Kitakyusyu (1,02 mln.) kabi shaharlar eng yiriklaridandir.

Tokio shahridan-Kobe shahrigacha 600 km masofada Tokaydo megapolisi joylashgan. Bu megapolis “katta uchlik” dan tashkil topgan bo’lib, ular quyidagilardir:

1. Tokio aglomerasiyasi o’z ichiga Tokio, Iokogama, Kawasaki, Tiba shaharlarini olgan bo’lib, ularda jami 27 mln. aholi yashaydi.

2. Xansin aglomerasiyasi o’z ichiga Osaka, Kobe, Kioto shaharlarini olgan bo’lib, ularda jami 15 mln. aholi yashaydi.

3. Tyune aglomerasiyasi Nagoya shahri va uni atrofini o’z ichiga olgan bo’lib, unda 10,2 million aholi yashaydi.

Tokaydo megapolisida aholi zichligi 1km^2 ga 800-1000 kishiga yetadi. Bu megapolis va uning atrofida (70000 km^2), Yaponiya aholisining 56 % i (70 mln.) yashaydi.

Umuman olganda, Tinch okean va Ichki Yapon dengizi sohillaridagi urbanizasiyalashgan xudud mamlakat maydonini $\frac{1}{3}$ qismini egallagan bo’lib, unda jami aholining $\frac{3}{4}$ qismi yashaydi.

Yaponiyada yerlar juda qimmatli va taqchil resurs bo’lganligi sababli “osmon o’par binolar” va “yer osti” uylar qurishga erishilinmoqda. Shuningdek, Yaponiya dengiz hisobiga o’z xududini kengaytirayotgan tipik davlat xisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq xo’jaligi va baliq ovlashda band edi. Hozirda esa bu tarmoqlarda iqtisodiy faol aholining 20% i, faqat qishloq xo’jaligining o’zida 5 % aholi band. Sanoat tarmoqlarida esa 33% dan ortiq aholi band. Endilikda nomoddiy sohalarda ishlovchi xodimlar ya’ni: xizmatchilar, ilmiy xodimlar, ishbilarmonlar soni tez ortib bormoqda. Yaponiyada aholini hayot darajasi juda yuqori, ya’ni jon boshiga YAMM 30 000-49 999 \$ ni tashkil etmoqda.

Yaponiyada hozirga kelib ayollar sonini erkaklar soniga nisbatan ortishi kuzatilinmoqda.

4. Yaponiya – BMT, ASEAN va Xalqaro Valyuta Fondi (MVF) tashkilotlariga a'zo. Davlat tuzumiga ko'ra – konstitusion monarxiya bo'lib, amaldagi konstitusiya 1947 yil qabul qilingan. Davlat boshlig'i imperator (Akixito, 1989 yildan) faqat davlat “ramzi” deb tan olinadi. Hokimiyat boshlig'i primer-ministr (bosh vazir) ga berilgan. Yaponiya hududi siyosiy-ma'muriy jihatidan 47 ta prefekturaga bo'linadi. Tokio, Kioto, Osaka shaharlari, Xokkaydo va Okinava orollari alohida prefektura maqomiga ega.

Davlat tili-yapon tili, boshqa til – ayn tili.

Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Liberal – demokratik partiya (LDP) 1955 yil tuzilgan.
2. Yaponiya Demokratik partiyasi (YADP) 1960 yil tuzilgan.
3. “Sakigake” partiyasi 1964 yil tuzilgan.
4. “Komeyto” (Sof siyosat partiyasi) 1964 yil tarkib topgan.
5. Yaponiya kommunistik partiyasi (YAKP) 1922 yil asos solingan.

Yaponlarning milliy an'analaridan biri bolalarni yoshligidan atrof-tabiatga, daraxtlarga, gullarga, hayvonlarga nisbatan mehr, ehtiyotkorlik tejab-tergab foydalanish munosabatini tarbiyalashdir. Shu sababli Yaponiyada tabiatga mavsumiy sayrlar uyushtirish nihoyatda ommaviy tus olgan: bahorda – yavvoyi olcha (sakura) uning gullashini tomosha qilib zavq olish, kuzda esa – zarang o'rmonlarda sayr qilish milliy an'analardandir. Endilikda bu an'analar g'arbdan kirib kelgan zamonaviy an'analar bilan uyg'unlashib ketmoqda.

Yaponiyada aholining o'rtacha zichligi ko'rsatkichlariga ko'ra (1 km² ga 334 kishi to'g'ri keladi) dunyoda eng oldingi o'rinlardan biridadir. Amalda esa bu erda aholinig zichligi bundan ancha katta, chunki mamlakatning deyarli barcha aholisi dengiz bo'yidagi pasttekisliklarda va daryo vodiylarida to'plangan.

Keyingi o'n yilliklar davomida, Yaponiya urbanizatsiya sur'atlarining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Natijada, urbanizatsiya sur'atlarining yuqoriligi jihatidan dunyoda oldingi o'rinlardan biriga chiqib oldi. Bugungi kunda, Yaponiyada ikki yuzdan ortiq yirik shaharlar mavjud. Yaponiyaning eng yirik

orollaridan biri Xonsyu orolining janubiy sohili bo`ylab, munchiqdek terilgan shaharlar, jumladan, Tokio, Osaka, Nagoya atrofida shakllangan aglomeratsiyalarning “katta uchligi” alohida ajralib turadi.

Tokio shahri Yapon orollaridan eng yirik Konto tekisligida joylashgan. U 1869 yili poytaxtga aylantirilgan va o`shandayoq yaponcha “Sharqiy poytaxt” degan nomni olgan.

Tokio aglomeratsiyasi Osaka, Nagoya va bir qator aglomeratsiyalar bilan birga yanada yirik urbanizatsiyalashgan “galaktika” - Tokaydo megalopolisini tashkil etadi, bu megalopolis sohil bo`ylab 600-700 km ga cho`zilib ketgan. Bu yerda aholi zichligi 1 km² ga 800-1000 kishiga to`g`ri keladi.

Yaponiya aholisini joylashishi va xo`jaligini rivojlanish darajasi jihatidan xududi ikki qismga bo`linadi: ya`ni “tashqi” (“Quyoshli”) va “ichki” (“Soyali”).

“Tashqi” Yaponiyaga Xonsyu orolining markaziy qismidagi dengiz bo`yi pasttekisliklari kiradi. Bu qism Tinch okeani sohili bo`ylab (15-65 km) Kambar polosada joylashganligi uchun “Tinch okeani mintaqasi” ham deb ataladi. Bu mintaqamamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy o`zagidir. Mazkur o`zakda mamlakatning asosiy sanoat, savdo, transport, moliyaviy, ilmiy, energetika markazlari joylashgan. Qurilish maydonlari etishmaganligi uchun ko`plab yirik korxonalar “dengiz hisobida” gi joylarga qurilgan. Bu mintaqamamlakatning faqat “sanoat mintaqasi” bo`libgina qolmay, balki muhim transpot va intensiv qishloq xo`jaligi rayoni hamdir.

II.BOB. YAPONIYA XO`JALIGIGA UMUMIY TAVSIF.

2.1. Yaponiya xo`jaligi: sanoati, qishloq xo`jaligi.

1950 yillardan boshlab deyarli chorak asr davomida Yaponiya iqtisodiyoti juda tez yuksalish sur'atlari bilan ajralib turadi, Mamlakat bu borada qisqa muddatda juda katta yo`l bosib, fan, texnika, ta'lim, sanoat va savdoda juda katta yutuqlarga erishdi. Yaponiya jahon miqyosidagi eng katta sarmoyachi (kreditor) davlatga aylandi. Mamlakatda ma'lum darajada butun iqtisodiy hayot sifat jihatidan qayta qurildi, industrial jarayonini to`la bosib o`tgan jamiyat asoslari yaratildi.

Yaponiya sanoati dastlab evolyutsion (ya'ni, asta-sekin tobora rivojlana borish) yo`lidan rivojlandi. Energetika, metallurgiya, avtomobilsozlik, kemasozlik, kimyo, neft kiyosi, qurilish sanoatikabi tayanch tarmoqlari import xomashyo asosida deyarli butunlay yangidan barpo etildi. Bular barchasi 70-80 yillardan boshlab sanoatda inqilobiy yo`l ustun turdi. Endilikda mamlakat yoqilg'i va xomashyo importiga bog`liq bo`lgan, energiya hamda metallni ko`p ishlatadigan ishlab chiqarishni tobora cheklab, fan va texnika-texnologiyalarni ko`p talab qiladigan eng yangi tarmoqlarga e'tibor berilmoqda. Yaponiya elektronika, robot texnikasi, biotexnologiya sohalarida yetakchi mavqeni egallab, endilikda noan'anaviy energiya manbalaridan foydalanishga kirishdi. Yaponiya fanga sarflanadigan mablag` salmog'i bo'yicha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning orasida birinchi o`rinda turadi, ilmiy xodimlarning soniga ko`ra esa Germaniya, Buyuk Britaniya va Fransiya birga qo`shib hisoblaganda ham, ulardan ustun turadi. Bu esa o`z navbatida, Yaponiyaning bugungi darajagagacha yetib kelishiga sababch bo`ldi.

Agar, ilgari Yaponiyaning ramzi sifatida "Fudziyama" muqaddas tog'i, sakura, geyshlar, samuraylar hisoblangan bo`lsa, endilikda bunday ramz g`arbiy dunyoda eng katta AES, metallurgiya kombinalari, supertankerlar, ko`priklar, tunnellar, tezkor temir yo`llar, eng zamonaviy avtomobillar "Tayota", "Honda", "Nissan" hisoblanadi. Mamlakatning rivojida talimning va kasbiy

kvalifikasiyaning yuqori ekanligi, mehnatkashlar ish intizomining mustahkamligi, ularning texnik takomillashuv sari muttasil intilishi ham muhim ahamiyatga ega. Yapon ishchisi kasbi jihatidan Amerika ishchisiga nisbatan yaxshi tayyorlangan bo'ladi. Mehnat haqi esa tayyorlanayotgan mahsulotning miqdorigagina emas, balki sifatiga ham bog'liq bo'lib, bu hol ishlab chiqarishning doimiy o'sishiga imkon beradi. Bndan tashqari yapon ishchisi odatda, biror firmaga "butun hayoti bo'yi" yo'llanadi va kamdan – kam holdagina ishini almashtiradi. Bu esa o'z navbatida, ishchini ishlab chiqarishni takomillashtirishga undaydi, chunki ish haqi miqdori, ta'til muddati, nafaqa haqi, "o'z firmasida"gi ish stajiga bog'liqdir.

5.Yaponlarning eng qadimgi madaniyati neolit davriga oid (eramizdan avvalgi) VI-I ming yilliklarda umumiy "dzemon" nomi bilan ma'lum.

Yaponiya xo'jaligi asosan XX asrda juda tez rivojlandi va rivojlanishi jihatidan hozirda jahon xo'jaligida yuqori o'rinlarga chiqib oldi. Bunday tez iqtisodiy o'sishga bir qator sabablar bor. Ular :

- II – jahon urushi yillarida eskirgan va ishdan chiqqan zavod jihozlari butunlay yangilandi va FTI ning eng yangi yutuqlari bilan ishlangan jihozlar bilan almashtirildi.

- Chetdan ko'plab patent va lisenziyalar avvalo AQSH va GFR dan sotib olindi va mahalliy sharoitga moslashtirildi.

- Ishchilar qattiq ekspluatasiya qilindi.

- Korxonalarni qayta tiklashga va yangisini qurishga ketadigan xarajatlarni asosiy qismini davlat o'z zimmasiga oldi. Monopoliyalarga kreditni ko'paytirdi va soliqni engillashtirdi.

- Harbiylarga ketadigan harajatlar kamaytirildi (demilitarizasiya) fanga, ilmiy-tadqiqot ishlariga fantalab ishlab chiqarishga e'tibor kuchaydi.

Yaponiya xo'jaligi juda qisqa muddatda fan, texnika, ta'lim, sanoat va savdoda juda katta yutuqlarga erishdi,ya'ni "iqtisodiy mo'jiza" yuz berdi. Yaponiya jahon miqyosidagi juda katta sarmoyachi davlatga aylandi. Yaponiya "iqtisodiy mo'jiza"

sining asosiy manbayi mutaxassislar xulosasiga ko'ra, yapon millatining yuqori darajadagi mehnatsevarligi va mehnat intizomi, uyushqoqlik va sabr-toqat, ishga mas'uliyat xissi va tejamkorlik kabi ijtimoiy ko'rsatkichlardir, shuningdek, Yaponiyaning harbiy tayyorgarliklardan tiyilib borishidir.

Yaponiya sanoati dastlab (1950yillardan boshlab) evolyutsion yo'ldan (tadrijiy) rivojlandi. Energetika, metallurgiya, avtomobilsozlik, kemasozlik, ximiya, neft-ximiya, qurilish sanoati kabi "tayanch" tarmoqlar import yoqilg'i va xom-ashyo asosida butunlay yangidan barpo qilindi. Ular FTI ning eng yangi yutuqlari asosida rivoj topdi.

XX asrning 70-80-yillaridan boshlab sanoatda inqilobiy yo'l ustun turdi. Endilikda mamlakat yoqilg'i va xom-ashyo importiga bog'liq bo'lgan, energiya va metallni ko'p ishlatadigan ishlab chiqarishni tobora cheklab, fanni ko'p talab qiladigan eng yangi tarmoqlarga ko'p e'tibor berilmoqda. Yaponiyada elektrotexnika, robot texnikasi, biotexnologiya kabi sohalar etakchi mavqeini egallamoqda.

Ilgari Yaponiyaning ramzi Fudziyama, sakura, samuraylar hisoblangan bo'lsa, endilikda bunday ramz eng katta AES lar, metallurgiya kombinatlar, supertankerlar, ko'priklar, tunnellar, tezkor temir yo'llar, zamonaviy avtomobillar hisoblanadi. 1970 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Yaponiyada YAIM yiliga o'rtacha 5 % dan o'sib keldi. Yaponiya fanga sarflanadigan mablag' salmog'iga ko'ra jahonda rivojlangan davlatlar orasida 1-o'ringa chiqdi. 1\$=110\$

2000 yili aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi IYAM qiymati bo'yicha dunyoda 2-o'rinni egalladi, yaeni 38200 AQSH dollari. Yalpi milliy daromad ko'rsatkichi bo'yicha 2000 yil Yaponiya dunyoda Evropa Ittifoqi, Xitoy va AQSH dan keyin 4-o'rinni egalladi. YAMD shu yili 5 trln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Dunyo tashqi savdosi taqsimotini 9 % i Yaponiya hissasiga to'g'ri keladi.

Yaponiya yuqori darajada rivojlangan mamlakat bo'lib, uning sanoatidagi yetakchi tarmoqlar quyidagilardan iborat:

Yaponiyaning iqtisodiy kartasi



Yoqilg'i – energetika sanoati. Yaponiyada neft va tabiiy gaz qazib olinsada u ehtiyojni qondirmaydi. Yaponiya dunyoda neft importi bo'yicha 2-o'rinda turadi. U yiliga 210-220 mln t. neft sotib oladi (umumjahon neft savdosini 14 % i). Neftni asosan OPEK davlatlaridan keltiradi.

Ko'mirni asosan Avstraliya, JAR, AQSH va Kanadadan keltiradi.

Yaponiya elektr-energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. U yiliga 950 mlrd kVt/s elektr – energiyasi ishlab chiqaradi. Bu butun jahon elektr-energiyasini 7,5 %i demakdir. Mamlakatda gidro, geotermal, quyosh, qalqish va to'liq elektro stansiyalari mavjud, lekin elektr-energiyasining asosiy qismini IES va AES lar beradi. Yaponiyada 30 dan ortiq AES lar bor, dunyodagi eng yirik AES (Fukusima) shu davlatda joylashgan.

Metallurgiya sanoati. Yaponiya po'lat ishlab chiqarish xajmi bo'yicha dunyoda 1-o'rinda turadi. U yiliga 98 mln t. po'lat eritadi, umumjahon po'latini 13,6 % i. Lekin po'lat eritish salmog'i yil sayin kamayib bormoqda. Masalan, Yaponiya 1990 yil 110 mln t. po'lat eritgan edi. Buning asosiy sababi mashinasozlikning metalga bog'liqligi kamayishi va fantalab sanoat tarmoqlarini kuchayishidir.

Organik sintez va neft-ximiya sanoati tarmoqlari asosan dengiz portlarida, ayniqsa Ichki Yapon dengizi bo'ylarida to'plangan. XX asrning 2-yarmida II-jahon urushiga qadar Yaponiyada avtomobilsozlik bo'lmagan edi, avtomobilsozlikda Yaponiya ulkan yutuqlarga erishgan. U avtomobil "jangi"da AQSH ni yutib chiqib dunyoda 1-o'rinni egalladi. Yaponiya yiliga 13 mln dona avtomobil ishlab chiqaradi, bu dunyo bo'yicha ishlab chiqarilgan (50 mln dona) avtomobillarni 26 % i demakdir. Yaponiyaning "Xonda", "Nissan" va "Toyot" kabi zamonaviy avtomobillaridunyoga mashxur. Avtomobilsozlikni eng yirik markazlar: Tokio, Osaka, Nagoya, Kawasaki kabi shaharlar hisoblanadi.

Hozirgi Yaponiya iqtisodiyotining faxri va ramzi elektrotexnika va elektronika sanoatidir. Ayniqsa radioelektronika sanoati – rangli televizorlar, videomagnitofonlar, radiotexnikalar ishlab chiqarish ustunlikka ega. Televizorlar

ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda 3 – o'rinda turadi, u yiliga 15 mln donadan ortiq televizor ishlab chiqaradi.

Metal kesuvchi dastgohlar ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda (yiliga 195 mln dona), traktorlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda (yiliga 150 ming dona) turadi.

Yaponiyada ommaviy mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan birga yuqori texnologiyaga asoslangan buyumlar ishlab chiqarish ustun. Mashinasozlik sanoati tarmoqlari eng rivojlangan xududi – Tokio rayoni bo'lib, u butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotni 3/1 qismini beradi.

Kema ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Kemasozlik sanoatining eng yirik markazlari: Iokogama, Osaka, Kobe va Nagasaki kabi shaharlarda joylashgan. Ularda kemasozlikning xilma-xil tarmoqlari rivojlangan. Yaponiyada dunyodagi eng yirik supertankerlar, xilma-xil kit ovlovchi kemalar, traulerlar va kichik kemalar ishlab chiqariladi.

Ximiya sanoatining rivojlanishi va sanoat mahsulotining hajmiga ko'ra Yaponiya dunyoda AQSH va Germaniyadan keyin 3-o'rinda turadi. Bu sanoatning asosiy xom ashyosi koks chiqindi, neft va tabiiy gaz hisoblanadi. Organik sintez ximiyasi keng ko'lamda rivojlanmoqda. Ximiya sanoatida; mineral o'g'itlar, medikamentlar, kosmetika, plastmassa, sun'iy tola, bo'yoqlar, noorganik ximikatlar ishlab chiqarish ustun turadi.

Qo'riq yerlar faqat Xokkaydo orolida saqlanib qolgan. Orollar meridional yo'nalishda joylashganligi uchun ularning iqlimiy sharoiti ham turlicha.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakatda qishloq xo'jaligida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi.

Akademik N.I.Vavilov Yaponiyaga 1929 yil uyushtirgan sayohatlari ta'sirida yozgan "Pyat kontinentov" asarida "Yaponiyada dehqonchilik o'zining intevsivligi bilan kishini hayratga soladi. Markaziy va Janubiy Yaponiyada har bir qarich yerdan foydalaniladi", deb yozgan edi.

So`nggi yillarda, esa qishloq xo`jaligining strukturasi ham asta – sekin o`zgarib bordi. Yaponiya har doim sof dehqonchilik mamlakati bo`lib kelgan. Garchi asosiy don ekini, yaponlarning noni hali hanuz sholi bo`lsa-da (sholi maydonlari mamlakatda haydaladigan yerlarning deyarli yarmini egallab yotadi), keying vaqtlarda bog`dorchilik, chorbog` xo`jaligi va ayniqsa qoramol, cho`chqa, parranda boqib ko`paytirish yaxshi rivoj topmoqda. Natijada, yaponlarning ovqatlanish ratsioni (ya`ni taomlar miqdori va sifati) yevropa va amerikaliklarning ratsioniga tobora yaqinlasha bordi.

Yaponiya qishloq xo`jaligida jami 7 mln kishi band, ishlanadigan yerlar esa mamlakat hududining 16%ini tashkil qilmoqda. Biroq bu hudud va ishchilar mamlakatning oziq – ovqat mahsulotlariga bo`lgan ehtiyojini asosiy qismini qondirib kelmoqda.

Yapon xo`jaligining yana bir an`anaviy tarmog`i – baliqchilikdir. Mamlakatda 3 mingdan ortiq baliq ovlovchi portlarning mavjudligi bugungi kunda unga dunyoda eng ko`p baliq ovlash imkoniyatini yaratib bermoqda. Sohil bo`yidagi dengizlarning boy va xillma – xil faunasi faqat baliqchiliknigina emas, balki boshqa dengiz mahsulotlarini yetishtirishni rivojlantirishga ham imkon bermoqda. Yaponiya bugungi kunda eng ko`p dengiz o`tlarini yig`ishtirib oluvchi davlat bo`lishi ham yuqoridagi ma`lumotlarni isbotlab beradi.

Yaponiya xo`jaligining juda muhim xususiyati uning xalqaro iqtisodiy aloqalari nihoyatda kuchli ekanligidir. Mamlakat o`z yoqilg`isi va xomashyosi bilan sust ta`minlanganligi sababli, ularning 9/10 qismini chetdan keltiradi. Ikkinchi tomondan, mamlakat iqtisodiyoti eksport qilish bilan ham bog`liqdir. Yaponiya bugungi kunda eng faol savdo balansiga ega bo`lib turgan mamlakatlardan biridir. Yapon avtomobillari, fotoapparatlari, turli xil ko`rinishdagi elektron moslamalar dunyo bozorlarida eng xaridorbop hisoblanadi. Yapon ishbilarmonlarining shiori “savdo qilish yoki halok bo`lish” dir.

Bugungi Yaponiyaning asosiy rayonlari – Tokio, Osaka, Nagoya, Kitakyusyu yirik issiqlik va atom elektr stansiyalari, metallurgiya, neftni qayta

ishlash va kimyo kombinatlari, masinasozlik zavodlari ham shu hududlarda joylashgan. Yuqorida sanab o`tilgan korxonalar chetdan keltiriladigan xomashyo va yoqilg`i hamda o`z mahsulotini eksport qilishga asoslangan. Qurilish maydonlari yetishmasligi sababli ko`plab, shu jumladan eng yirik korxonalar qirg`oq bo`yidagi dengizdan ajratib olingan maydonlarga qurilgan.

Tinch okean mintaqasini odatda sanoat mintqasi deb ataydilar, lekin hozirda esa bunday atama o`zini to`la oqlamayapti, sababi qishloq xo`jaligi rayonlari, bosh transport magistrallari, eng muhim portlar va xizmat ko`rsatish sohalarining rivojlanib borayotganligi kuzatilmoqda.

Yaponiyaning “ichki qism” deb ataluvchi hududida uning qirg`oq bo`yi sohillari joylashgan. U avvalo Xonsyu orolining barcha tog`-o`rmon rayonlarini o`z ichiga olib, bu yerda o`rmon ogochi tayyorlash, chorvachilik, yer osti boyliklarini qazib olish, gidroenergetika ustun turadi. Rekreatsiya va turizm so`nggi yillarda jadal rivojlanmoqda.

So`nggi vaqtlarda Yaponiyadagi davlat regional siyosati ekologik jihatdan toza chekka hududlarni turistik baza sifatid shakllantirishdi. Tinch okeani mintaqasidagi ekologik va demografik vaziyatni yumshatish maqsadida barcha texnopolislar, ya`ni fan va fanni ko`plab talab qiluvchi ishlab chiqarish markazlarining yarmi Xonsyu orolining atrof zonasi bunyod etilganligi Xokkado orolidagi dunyodagi eng uzun temir yo`llardan biri - “Seykan” temir yo`lini qurishga imkon tug`dirdi.

2.2. TRANSPORTI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALARI.

Yaponiyada transportning daryo va quvur transportidan tashqari barcha turi rivoj topgan. Bu mamlakat transport shaxobchalarining xarakteriga ko'ra G'arbiy Yevropa mamlakatlarini yodga solsa, yuk tashish va ayniqsa yo'lovchilar tashish hajmiga ko'ra mamlakatlarning hammasidan o'zib ketdi. Yo'lovchi tashuvchi temir yo'l tugunlarining zichligiga ko'ra esa Yaponiya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Yaponiya shuningdek, Garb mamlakatlari orasida eng katta va eng zamonaviy dengiz flotiga ega. U arzon yuklarni tashishni ham keng yo'lga qo'ygan.

Yaponiyaning asosiy transport o'qini "Sinkansen" tezyurar poyezdlar yuradigan temir yo'l magistrali tashkil qiladi. Bu magistral butun bjsjli Tinch okean mintaqasi bo'ylab o'tgan.

Yaponiyada daryo va quvur transportidan tashqari barcha transport turlari yuqori darajada rivojlangan. Ichki yuk tashishda avtomobil, temir yo'l va kabataj kemalari asosiy o'rin tutadi.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 1,2 mln km bo'lib (umumjahon avtoyo'llarning 4,8 %i) uning 43% i qattiq qoplamli, 5 ming km esa tez qatnov yo'llaridir. Avtomobillar soniga ko'ra Yaponiya dunyoda AQSH dan keyin 2-o'rinda turadi (1000 kishiga 500 ta). Mamlakatda tashiladigan jami yukning 7,4 %i, yo'lovchilarning 57 % i avtotransport hissasiga to'g'ri keladi.

Temir yo'llarning umumiy uzunligi 30 ming km bo'lib, ularning yarmi elektrlashtirilgan. Eng muhim temir yo'li "Sinkansen" magistrali bo'lib, u Kyusyu orolidan Xonsyu orolini shimolidagi Aomori shahrigacha 1100 km ga cho'zilgan. Bu yo'lda qatnovchi "Poezd-o'q" ("Xikari") soatiga 240 km tezlikda harakatlanib, yiliga 120 mln yo'lovchi tashiydi. Bunda u 66 ta tunnel va 3000 ta ko'prikdan o'tadi. Xonsyu va Xokkaydo orollari orasidagi Sugari bo'g'oziga dunyodagi eng uzun (54 km li) tunnel qurilgan (1970-1988 yillar). Mazkur "Seykan" tunnelini 23

km suv ostidan o'tgan. Bu yo'l "Tokio- Sapporo" oralig'idagi poezd qatnovini ancha tezlashtirdi va aholiga juda katta qulaylik yaratdi.

Yaponiyada tashiladigan jami yukning 91,7 % i dengiz transportida, 7,4 % i avtomobil transportida, 0,7 % i temir yo'l transportida, 0,2% i havo transportida tashiladi.

Yaponiyada tashiladigan jami yo'lovchining 56,9 % i avtomobil transportida, 33,9 % i temir yo'l transportida, 8,7% i havo transportida, 0,5 % i boshqa transport turlarida tashiladi.

Yaponiya yo'lovchi tashuvchi temir yo'llarning zichligiga ko'ra dunyoda 1-o'rinda turadi. Temir yo'llarning eng serqatnov qismi Tokio- Osaka oralig'idir.

Yaponiyaning tashqi va ichki aloqalarida dengiz transporti muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda tashiladigan barcha yukning 91,7 % ini dengiz transporti hissasiga to'g'ri keladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar orasida eng katta va eng zamonaviy savdo flotiga ega. U dunyoda yuk tashish tonnaji bo'yicha 6-o'rinda turadi (yiliga 22 mln reg. t.). mamlakatda 100 dan ortiq portlar bo'lib, ular ichida eng yiriklari Tokio, Tiba, Iokagama, Nagoya, Kobe, Kavasaki, Osaka, Xerosima, Kitakyusyu kabilardir. Hozirda Dunyoda 2700 ta port shaharlar mavjud.

Havo transporti mamlakatning asosiy xalqaro va ichki aloqalarida muhim ahamiyatga ega. Yaponiyada tashiladigan jami yukning 0,7 % i, yo'lovchining 8,7 % i havo transporti hissasiga to'g'ri keladi.

Yaponiya xo'jaligining juda muhim xususiyati uning xalqaro iqtisodiy aloqalari nihoyatda kuchli ekanligidir. Birinchidan, mamlakat yoqilg'i va xom-ashyoni 90 % ini chetdan keltiradi, ikkinchidan mamlakat iqtisodiyotida tayyor mahsulotni eksport qilish ustun. Yaponiya Osiyo-Tinch okeani regionidagi barcha mamlakatlarning savdo bo'yicha bosh shergidir. Hatto AQSH passiv savdo balansiga ega, Yaponiya esa aktiv savdo balansiga ega.

Tashqi iqtisodiy aloqalar Yaponiya iqtisodida hayotiy ahamiyatga ega. Buning asosiy sababi mamlakat iqtisodini ko'p sohalarni chet el xom-ashyosiga tayanishi va tayyor sanoat mahsulotlarini eksport qilinishidir.

Yaponiya jahonning juda ko'p mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib bormoqda. Mamlakat tashqi savdo aylanmasi (oborot) ning katta qismi (1/3 qismi) AQSH hissasiga to'g'ri keladi. Yaponiya eksportini 1/3 va importini 1/4 qismi AQSH ga to'g'ri keladi. AQSH dan tashqari asosiy savdo sheriklari: Xitoy, Avstraliya, Germaniya, Indoneziya va "Osiyo yo'lbarslari" davlatlari.

XX asrning 50-60-yillaridan boshlab, Yaponiya eksportida kapitalning salmog'i to'xtovsiz oshib bormoqda. Kapitalni asosiy qismi Janubi-Sharqiy Osiy davlatlari (avvalo "Yapon modeli" asosida rivojlanayotgan "Osiyo yo'lbarasi" davlatlari) G'arbiy Evropa davlatlari va AQSH ga to'g'ri keladi. Keyingi vaqtlarda Yaponiyada rivojlanayotgan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari o'sib bormoqda.

Yaponiya milliy valyutasi-sena, erkin almashinadigan valyuta (SKV) bo'lib, u xalqaro valyutalar qatoriga kiradi. Uning qiymati xozirda (2006 yil 1- aprel ma'lumoti) quyidagicha: 1\$ = 118,9 ien, 1¥ = 1s 26 tiyin.

O'zbekiston jahonning 140 dan ortiq davlati bilan iqtisodiy aloqalar olib bormoqda. qo'shma korxonalar soni 2003 yil 3539 taga etdi. O'zbekiston – Yaponiya hamkorligi bo'yicha 14 ta xujjat imzolangan. Ular asosan "ta'lim sohasida", "turizm", "mintaqaviy xavfsizlik", "iqtisodiy hamkorlik" kabi yo'nalishlarda. O'zbekiston iqtisodiyotiga Yaponiya tobora ko'proq investisiya kiritmoqda. Masalan: Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi va Sho'rton gaz-kimyoy majmuasi qurilishida Yaponiya faol ishtirok etdi. O'zbekistonga – Yaponiyadan texnologiya vositalari, tayyor iste'mol mahsulotlari, aloqa kommunikasiya vositalari import qilinsa, O'zbekistondan Yaponiyaga paxta, ipak, tog'-kon, metallurgiya mahsulotlari eksport qilinmoqda. 2001 yil ma'lumoti bo'yicha, O'zbekistonga Yaponiyadan import qilingan mahsulotlar hajmi 100 mln AQSH dollaridan oshiqni tashkil etdi. O'zbekiston esa Yaponiyaga 10-20 mln AQSH dollari hajmida mahsulot eksport qilgan.

Dunyo bo'yicha import qilinayotgan yoqilg'i va xom-ashyoni 10 %idan ortig'i Yaponiya hissasiga to'g'ri keladi. Yoqilg'i va xom-ashyo importi bo'yicha bu mamlakat dunyoda AQSH va Germaniyadan keyin 3- o'rinda turadi. Yaponiyaning

asosiy importi: yoqilg'ilar, rudalar va boshqa xom-ashyolar, oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, ximiya, mashina va asbob-uskunalar, o'rmon, qishloq xo'jalik mahsulotlari.

Asosiy eksporti: mashina va uskunalar, avtomobillar, qorametallurgiya mahsulotlari, kemalar, apteka, kapital, ximiya, to'qimachilik va ishlov beruvchi sanoatning boshqa mahsulotlari, ilmiy – tadqiqot ishlari uchun jihozlar, elektronika va elektrotexnika buyumlari.

Yaponiya dunyoning rivojlangan mamlakatlari AQSH va YEIX mamlakatlari rivojlanayotgan mamlakatlaridan, Avstraliya, Fors qo'ltig'i mamlakatlari bilan shuningdek Rossiya Federasiyasi bilan faol tashqi iqtisodiy aloqalarini olib boradi.

XULOSA

Xulosa o`rnida, shuni aytish mumkinki, biz Yaponiya xo`jaligi bilan tanishar ekanmiz, quyidagi xulosalar bilan o`z fikrimizni yakunlaymiz: maydoni O`zbekiston respublikasi maydonidan 71 000 km² ga kichik, aholisi soniga ko`ra O`zbekistondan 5 barobar katta bo`lgan, yoqilg`i va xom-ashyoga juda kambag`al. Yaponiyani jahonning eng qudratli va nufuzli davlatga aylanishiga quyidagi yagona omil ya`ni, o`ta malakali va ma`naviyatli xalqi sabab bo`ldi. Ayrim ko`rsatkichlar bo`yicha Yaponiya hatto AQSH dan ustun turadi. Bunga asosiy sabablar: ta`limning yuqori darajadali, malakali ishchi kuchi, mehnatsevar xalqi, o`z ishiga o`ta mas`uliyat bilan qarashi, tartib - intizomliligi, dunyoda bolalar o`limining eng kamligi, aholisini umr ko`rishini eng yuqoriligi, bolalar tarbiyasiga yoshligidan katta e`tibor berilishi, fanga jaratiladigan mablag`larni juda ko`pligi (dunyo bo`yicha birinchi o`rinda), ilmiy xodimlar sonining ko`pligi (Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyani birga hisoblaganda ham Yaponiyada ulardan ko`p), universitetlarning ko`pligi (butun G`arbiy Evropadagi universitetlardan ko`p) kabilardir.

Shu boisdan ham, Prezidentimiz I.A. Karimov kadrlar masalasini 3-ustuvor yo`nalish tarqasida eng dolzarb masalalar qatoriga kiritdi. “Ta`lim to`g`risida” va kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risidagi O`zbekiston Respublikasi qonunlari, hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “ta`lim – tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to`g`risida” gi farmonini bajarish borasidagi asosiy ishlar davr talablariga to`liq javob beradigan yuqori malakali mutahassislarni tayyorlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1. Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida, xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” Toshkent. 1997 y.**
- 2. Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma’ruzalar matni. Qo`qon–2008.**
- 3. Jahon mamlakatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi**
- 4. Jahon mamlakatlari (ma`lumotnoma). T.1990.**
- 5. Soliev A., Safarov I. “Iqtisodiy va siyosiy geografiya asoslari”. T.:2003y.**
- 6. Qayumov A., Safarov I., Tillaboeva M. “Jahon iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi” T. “O’zbekiston” 2014 y.**
- 7. [www. referatu.ru](http://www.referatu.ru)**
- 8. www.Tdpu.Uz**
- 9. www.pedagog.Uz**
- 10. www.Ziyonet.Uz**